ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

JARKINOVA TURSUNOY ABDUMAJITOVNA

YUSUF SHOMANSUR IJODINING POETIK XUSUSIYATLARI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.133.09-1

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in Philology Sciences

Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по филологическим наукам

Jarkinova Tursunoy Abdumajitovna
Yusuf Shomansur ijodining poetik xususiyatlari 3

Jarkinova Tursunoy Abdumajitovna
Poetic features of Yusuf Shomansur’s work 25

Жаркинова Турсуной Абдумажитовна
Поэтические особенности творчества Юсуфа Шомансура 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 55

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

JARKINOVA TURSUNOY ABDUMAJITOVNA

YUSUF SHOMANSUR IJODINING POETIK XUSUSIYATLARI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3332 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Bahodir Nurmetovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Jumaxo‘ja Nusratullo Atoullo o‘g‘li** filologiya fanlari doktori, professor
	Qahramonov Qurdosh Yalgashevich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "17" 09 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (366 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil "22" 08 dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., akademik

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., professor

N.A.Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor shaxsi va ijodiy merosini o‘rganish, asarlari tahliliga chuqur yondashish, ularning mohiyatini anglash va kelajak avlodga yetkazish borasida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Shoir va yozuvchilarning ijodiy faoliyati shakllanishida adabiy maktablar, biografik hamda sotsiologik omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligi e’tirof etib kelingan. Shu nuqtayi nazardan shoir, nosir, tarjimon va adabiyotshunos Yusuf Shomansur(1936-1978) ijodiga qayta baho berish, asarlarining poetik xususiyatlarini tekshirish, janriy jihatlarini talqin qilish zarurdir.

Jahon adabiyotshunosligida ijodi o‘rganilmagan shoir va yozuvchilar asarlariga murojaat qilish, ularning adabiy merosini to‘plash, keng ko‘lamda o‘rganish, ularga xolisona yondashish zarur vazifalardan hisoblanadi. Muhim ilmiy xulosalar chiqarishda adiblarning ijod laboratoriyasi, asarlaridagi o‘ziga xosliklarni talqin qilish birlamchi o‘rinda turadi. Asarlarni mazkur yo‘nalishda tahlil etish adabiyotshunoslik ilmining mavzu, lirik qahramon tabiati, uslub, janr kabi nazariy masalalarini yanada aniqlashtirishga hamda takomillashtirishga xizmat qiladi. Ijodkorning turli yo‘nalishdagi faoliyatini, ya’ni tarjima, badiiy ijod va ilmiy faoliyatdagi izlanishlarini atroflicha o‘rganish adabiyotshunoslik uchun qimmatli ma’lumotlarni bergan. Shu jihatdan Yusuf Shomansur badiiy tafakkurining shakllanishida adabiy muhit, tarjima va ilmiy faoliyatining ta’siri masalasini ilmiy jihatdan tahlil qilish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbek adabiyotshunosligida istiqlol sharofati bilan XX asrning 60–70-yillari o‘zbek adabiyotini har jihatdan izchil va qayta o‘rganishning keng imkoniyatlari vujudga keldi. Xususan, badiiy ijod namunalarini turli metod va nazariy qarashlar asosida tadqiq etish yo‘llari tobora kengaydi. Bunday yondashuv esa adabiy hodisalar genezisi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va badiiyatini o‘rganishda, eng asosiysi, XX asrning 60–70-yillari adabiyotini, davr ijodkorlarini milliy istiqlol ruhida talqin va tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Jahon adabiyotshunosligi bilan bo‘ylashishi uchun o‘zbek adabiyotshunosligining zimmasiga badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada kirib borish, ijodkorlar adabiy merosini to‘laqonli o‘rganish, badiiylik mezonlari asosida yondashish kabi bir necha vazifalar yuklanmoqda. Zero, “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu, avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”[1]. Jahon adabiyotshunosligida qilinayotgan ishlar salmog‘i oshib borayotganligini anglagan holda XX asr 60–70-yillar o‘zbek adabiyoti vakillari ijodini o‘rganish va asliyatini ochish davr talabi ekanligi ayon haqiqatdir. Tadqiqotda Yusuf Shomansur ijodiy merosining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyatini belgilash muhim nazariy muammo sifatida qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2017. 4-avgust.

son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida adabiyotning ta’sir kuchini oshirish bo‘yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalqning qadriyatlari, o‘zligini saqlab qolish uchun uning asrlar to‘zonidan o‘tib kelayotgan merosini chuqur o‘rganish, yurtning fidoyi farzandlarining o‘zbek millati ravnaqi yo‘lida yaratgan asarlarini tadqiq etish zarur. O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lini belgilab beradigan strategik rivojlanish tamoyillarida ham xalqning noyob merosini mukammal o‘rganish, amaliyotga tatbiq etish va shu orqali kelajak avlodni vatanparvarlik, millatsevarlik ruhida tarbiyalash muhim vazifalar etib belgilangan.

XX asr 60–70-yillar o‘zbek adabiyotining xarakterli xususiyatlari, poeziya va prozasiga xos belgilar, bu davr vakillari ijodining o‘ziga xosliklari bir necha kitob, maqola, dissertatsiyalarda yoritilgan. Jumladan, I.Sulton, M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, N.Xudoyberganov, I.G‘afurov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, N.Rahimjonov, M.Safarov, E.Vohidov, I.Yormatov, B.Akromov, U.Hamdam, J.Jumaboyeva, Y.Solijonov[2] kabi munaqqid va adabiyotshunoslar davr lirikasi, nasri, tanqidi, tarjimasi haqida o‘z mulohazalarini bildirishgan.

---

[2] Qarang: Иззат Султон. Ҳаёт, адабиёт ва маҳорат: адабий-танқидий ишлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 318 б.; Қўшжонов М. Изланиш // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1960. – № 8. – Б. 22; Қўшжонов М. Ижод сабоқлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – 190 б.; Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. – 166 б.; Мамажонов С. Ўзбек совет поэзиясининг кечаги, бугунги ва эртанги куни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – № 6. – Б. 40; Мамажонов С. 1965-йилнинг шеърий парвози // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1966. – № 7. – Б. 202; Мамажонов С. Лирикамизга бир назар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1969. – № 11. – Б. 229; Худойберганов Н. Жанговарлик ва масъулият // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1969. – № 7. – Б. 200; Худойберганов Н. Ҳақиқий муҳаббат борми? // Гулистон, 1973. 7-сон. – Б. 26; Ғафуров И. Ям-яшил дарахт // Гулистон, 1975. 4-сон. – Б. 23; Ғафуров И. Ёнар сўз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 184 б; Ғафуров И. Ўттиз йил изҳори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – 141 б; Ғафуров И. Дил эркинлиги. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 126 б; Шараффиддинов О. Қалб ёлқини // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1978. 7-сон. – Б. 22; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 534 б.; Норматов У. Поэма – қалб қўшиғи // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1965. – № 11. – Б. 169; Норматов У. Насримиз ютуқлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 216 б.; Назаров Б. Ҳаётийлик – беғубор мезон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – 127 б; Сафаров М. Дунё кирмоқдадир шоир қалбига. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 12; Воҳидов Э. Улкан якун, зўр синов // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1966. – № 11. – Б. 203; Воҳидов Э. Истеъдод чироғи // Гулистон, 1978. 4-сон. – Б. 26; Раҳимжонов Н. Фалсафий лирика ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. 3-сон. – Б. 10; Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 14; Ёрматов И. Ҳозирги ўзбек лирикасидаги синтезлашган фольклоризмлар хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. 2-сон. – Б. 35; Акромов Б. Оламнинг

Ularning ba'zilarida Yusuf Shomansur she'riyati haqida ham fikr-mulohazalar yuritiladi, unda mazkur davrda adabiyotimizga kirib kelgan navqiron avlod vakillari safida tilga olinadi. Manbalarda Yusuf Shomansur ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar kam uchrasa-da, S.Mirvaliyev, R.Shokirovalarning "O'zbek adiblari"[3] kitobi shoir ijodini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Kitob orqali ijodkorning hayot va ijod yo'li, she'riy to'plamlari, romani, tarjimalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Shu bilan birga, Yusuf Shomansurning "Qo'sh yurak"[4] nomli to'plamiga zamondoshi To'lqin tomonidan yozilgan so'zboshi ham muhim ahamiyatga ega. "Men o'tqazmagan daraxtlar"[5] to'plamiga adabiyotshunos Naim Karimov yozgan so'zboshi esa xolisona fikrlar bilan omixtalanganligi uchun e'tirofga loyiq. R.Abdurashidovning shoirning "She'r dardida" she'riy to'plamiga yozgan "Izlaganga nima yetsin"[6] maqolasi ham chuqur tahlillari bilan diqqatga sazovor. Biroq Yusuf Shomansur ijodining poetik xususiyatlari, she'riyatining mavzu ko'lami, romannavis, tarjimon sifatidagi mahorati maxsus tadqiqot ishi doirasida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Hozirgi adabiy jarayon masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Yusuf Shomansur ijodiy faoliyati shakllanishida adabiy maktablarning o'rnini aniqlash, ustozlarning roli va ta'sirini ko'rsatish, shoir she'riyatining mavzu doirasi, undagi lirik qahramon tabiatini ochish, nasriy asarlari badiiyatini, tarjimonlik mahorati masalasini yoritish, adabiy-estetik qarashlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asrning 60–70-yillari davr poeziyasiga xos xususiyatlarni aniqlash; Yusuf Shomansur ijodining shakllanishida adabiy to'garaklarning o'rni va ahamiyati, ustozlarning ta'sir kuchini yoritish;

shoir she'rlarining mavzu mundarijasini belgilash, ularda namoyon bo'lgan lirik qahramon tabiatini ochib berish hamda ijodkor shaxsiyati bilan uyg'unliklarini taftish qilish, bolalar she'riyatida ijodkorning o'rnini belgilash;

nasrdagi izlanishlariga baho berish, xususan, "Qora marvarid" romanining badiiyati, obrazlar tizimini tadqiq etish;

tarjimon sifatida ijodkor mahoratini o'rganish, Shekspir sonetlari tarjimalarining badiiy-estetik qiymatini belgilash, Yusuf Shomansur va Jamol Kamol tarjimalarini qiyosan tahlil qilish asosida poetik mahorat qirralarini ochib berish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Yusuf Shomansurning "Qo'sh yurak", "Men o'tqazmagan daraxtlar", "Qiziq-qiziq", "Akrom va makaron" she'rlar to'plami, "Qora marvarid" romani, tarjimalari, ilmiy-tanqidiy maqolalari tanlangan.

бутунлиги: лирикада образ муаммоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 34; Ҳамдам Улуғбек. Бадиий тафаккур талқини. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2002. – Б. 6; Jumaboyeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 134; Solijonov Y. Adabiyot hiyoboni. – Farg'ona: Farg'ona, 2020. – B. 4.

[3] Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2016. – 200 b.

[4] Тўлкин. Замон куйчиси. Юсуф Шомансур. Қўш юрак. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б. 3-4.

[5] Наим Каримов. Юсуф Шомансур ҳақида. Юсуф Шомансур. Мен ўтқазмаган дарахтлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – Б. 3-8.

[6] Абдурашидов Р. Излаганга нима етсин // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1966. 10 сон. – Б. 234-238.

Tadqiqotning predmetini ijodkorning poetik mahorati, she'rlaridagi lirik qahramon tabiati, obrazlar tizimi va ifoda yo'sinidagi o'ziga xosliklarini, mavzular doirasini o'rganish, adabiy-tanqidiy maqolalarining dolzarbligini, tarjimalarining badiiyatini ochish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-tipologik, psixologik, lingvopoetik, sotsiologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yusuf Shomansur badiiy olamining kengayishida davr adabiy muhiti, adabiy maktablar va ustozlarning ta'siri katta ekanligi muallifning o'zi, tengdoshlari, zamondoshlarining xotiralari orqali ochib berilgan;

she'rlarida mavzuga yondashishda va lirik qahramon tabiatini gavdalantirishda falsafiylikka asoslanganligi, ayrim she'rlarida yumoristik kayfiyat yaqqol sezilishi misollar yordamida asoslangan;

xarakter tabiatini aks ettirishda, badiiy asar tilida yozuvchining uslubiy o'ziga xosligi masalasi "Qora marvarid" romani vositasida dalillangan;

jahon va qardosh xalqlar adabiyotidan qilgan tarjimalari misolida ijodkorning badiiy mahorati tekshirilib, adabiy-tanqidiy maqolalari, kitoblari, izlanishlarida yoritilgan mavzu, muammolar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijodkor badiiy tafakkurining shakllanishida adabiy muhitning ta'siri, adabiy maktablar va ustozlardan olingan bilim hamda tajribalarning o'rni yuksak bo'lishi Yusuf Shomansur ijodi misolida tahlil qilingan;

davriy nashrlarda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar, taqrizlar, tarjimalar yig'ilib, ijodkorning adabiy merosini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi isbotlangan;

Fanlar akademiyasiga qarashli Fundamental kutubxonada muallifning "Voqelikni realistik aks ettirishda ilmiy tafakkurning roli" dissertatsiyasi topilib, unda tahlil va talqin qilingan masalalar adabiyotshunoslik ilmining rivoji uchun qimmatli manba bo'la olishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Yusuf Shomansur ijodiy merosining ko'lami, nasriy izlanishlari, tarjimonlik mahorati va ilmiy faoliyati keng tadqiq qilinib, jahon va o'zbek nazariyotchi olimlarining poetik qarashlari hamda zamonaviy adabiy jarayonda erishilgan eng ishonchli, nazariy jihatdan mukammal xulosalari asos qilib olingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati ijodkor laboratoriyasi, biografiyasi, obraz poetikasi, adabiyot nazariyasi, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqidchilik, tarjima, badiiy tahlil, roman janri nazariyasiga doir tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati filologik oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari uchun "Adabiyotshunoslikka kirish", "Hozirgi adabiy jarayon", "Adabiyot nazariyasi", "Yangi o'zbek adabiyoti" fanlari va o'quv kurslari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar tayyorlashda hamda ixtisoslik fanlari nazariy bazasini shakllantirishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan dalillanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Yusuf Shomansur ijodining poetik xususiyatlari tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Yusuf Shomansur badiiy olamining kengayishida davr adabiy muhiti, adabiy maktablar va ustozlarning ta’siri katta ekanligi muallifning o‘zi, tengdoshlari, zamondoshlarining xotiralari orqali ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan AL – 662205561 raqamli “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-apreldagi 01/04-1220-sonli ma’lumotnomasi). Natijada shoir va yozuvchilar ijodining shakllanishida adabiy maktab hamda muhitning roli beqiyosligiga oid ma’lumotlar loyihaning amaliy qiymatini oshirgan;

jahon va qardosh xalqlar adabiyotidan qilgan tarjimalari misolida ijodkorning badiiy mahorati tekshirilib, adabiy-tanqidiy maqolalari, kitoblari, izlanishlarida yoritilgan mavzu, muammolar aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan PF-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-apreldagi 01/04-1222-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi xulosa va umumlashmalar bilan boyishiga erishilgan;

xarakter tabiatini aks ettirishda, badiiy asar tilida yozuvchining uslubiy o‘ziga xosligi masalasi “Qora marvarid” romani vositasida dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan IL-402104474 “Bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-apreldagi 01/04-1219-sonli ma’lumotnomasi). Natijada elektron platforma xalq og‘zaki ijodi namunalaridan maqol, iboralar bilan boyigan;

she’rlarida mavzuga yondashishda va lirik qahramon tabiatini gavdalantirishda falsafiylikka asoslanganligi, ayrim she’rlarida yumoristik kayfiyat yaqqol sezilishi misollar yordamida asoslanganligiga oid ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Tamaddun darg‘alari” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (2025-yil 28-martdagi 01-30/193-sonli ma’lumotnomasi). Natijada bu ma’lumotlar tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otgan hamda teleko‘rsatuv materiallari amaliy boyishiga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy maqola nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, olti fasl, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 150 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati izohlangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekti, predmeti ham ko‘rsatib berilgan, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari tavsiflangan. Tadqiqotning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochiqlangan hamda amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot bo‘yicha e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“XX asr 60–70-yillar o‘zbek adabiyoti va Yusuf Shomansur ijodi”** deb nomlanib, ushbu bob 2 bo‘limdan iborat. 1-faslda ***“XX asr 60–70-yillar o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari”*** mavzusida bahs yuritiladi. Unda XX asr 60–70-yillarida shakllangan o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, she’riyatining yetakchi tamoyillari, mazkur davrda ijod qilgan ijodkorlar ijodining muhim jihatlari haqida ma’lumot beriladi.

60–70-yillarda adabiyot maydoniga bir guruh iste’dodli yoshlar dadil qadamlari bilan kirib keladi. Munaqqid S.Mamajonov “o‘z shogirdlik qiyofasiga ega yangi kuchlarning kelib qo‘shilganligi”[7]ni e’tirof etgan holda yoshlar ijodidan esa Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov, Yusuf Shomansur, G.Jo‘rayeva, G.Nurillayeva, Erkin Vohidov, Shoislom Shomuhamedov, Xayriddin Salohlar she’rlarining o‘ziga xosliklarini alohida ta’kidlaydi. Mazkur davrda ijodkorlarning shakllanishida, adabiyot olamiga kirib kelishida adabiy maktablar, adabiy muhitning ta’siri yuksak bo‘ldi. Ana shunday adabiy ta’sir masalasi shoir Yusuf Shomansur ijodida ham parallel ravishda kechadi. U ham ustoz G‘ayratiy saboqlaridan bahramand bo‘ladi, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemirdek ijodkorlarning sarchashmasidan ozuqa olib ulg‘ayadi. Adabiyotga sinchkov nigoh bilan qarashni o‘rganadi. Ular bilan hamsuhbat bo‘lib, ijodning sir-asrorlaridan xabardor bo‘ladi. Mazkur davrda kirib kelgan yoshlar ijodi, ulardagi yangilanishlar adabiyotning yutug‘i bo‘lishi bilan birgalikda mezonlarini ham belgilab berdi. 60–70-yillar o‘zbek she’riyatida bir necha jihatlar ko‘zga tashlanadi.

1. Lirik ifodada inson ruhiyatiga kirib borish tamoyili shakllandi, ruhiy kechinmalari, turli sezimlari poetik tasvir obyektiga aylandi. Inson qalbiga bo‘ylashish, uning qudratini kuylash shoirlar she’riyatining bosh tamoyiliga aylandi. Jumaniyoz Jabborovning “Bahor va inson”, “Inson qalbi”, Abdulla Oripovning “Inson qalbi bilan xazillashmang siz”, Erkin Vohidovning “Qalb” she’rlaridagi mazmun-mohiyat bunga dalil bo‘la oladi. Inson obrazining o‘zgacha qiyofada gavdalanishi psixologik tasvirning yangi bosqichga ko‘tarila boshlashi, lirik qahramon ruhiyatida evrilishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Yusuf Shomansurning “Yuragim geografiyasi”, “Yurakdagi nusxa” she’rlarida ham inson yuragining cheksiz kuch-qudratga ega ekanligi madh etiladi. “Yurakdagi nusxa” she’rida shoir, bastakor, rassomni qiynaydigan bir armon – qalbida kechayotganini to‘laqonli aks ettira olmaslik haqida yozadi.

---

[7] Мамажонов С. Ўзбек совет поэзиясининг кечаги, бугунги ва эртанги куни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – № 6. – Б. 40.

2. *Falsafiy lirika – mazkur davr she'riyatining bosh bo'g'iniga aylandi.* Umr mazmuni, hayot va o'lim, borliq va koinot, haqiqat, adolat haqida yozilgan, tafakkur bilan yo'g'rilgan, falsafiy mushohadaga undaydigan she'rlar 60-yillar she'riyatining asosiy mohiyatini belgilab berdi. Umr qadri, borliq sinoatlari, haqiqat, adolat mavzulari ko'plab shoirlar she'rlarida falsafiy-badiiy talqin qilingan. Yusuf Shomansur "Kalendar varag'i", "Shoshilamiz", "Masofa" she'rlarida borliq qonuniyatlarini tahlil etadi. "Shoshilamiz" she'ri orqali idroki, ongi shoshgan insoniyatning yashash tarzi haqida fikr boradi. "Masofa" she'rida esa qit'alar orasidagi bog'liqlik muammo emasligini, biroq dillar bilan dillar orasidagi masofa muammoligini aytadi.

3. *Milliy folklorga, undagi she'riy shaklga murojaat etish jonlana boshladi.* 60-yillarda ijodkorlar ham siyosat, ham ko'ngil, ham xalq hayoti bilan hisoblashishlari zarur edi. "Davrning tabiiy bir ehtiyoji bu avlod zimmasiga an'anaviy she'riyatni yangilash va badiiy tafakkurda teranlashuvdek ulkan bir vazifani yuklagan edi. Ijod ahli xalq diliga yaqinlashdi, xalqning dard-u alamlariga sheriklik tuyg'ularini ilgari surdi; ramzlar vositasida o'z millatining tutqunlikdan ozod bo'lishdek ezgu istagini bayon qildi"[8]. Bu davr ijodkorlari sintezlashgan folklorizmlardan 2 xil ko'rinishda foydalana boshladi: 1. Xalqning maqol, matal va iboralaridan; 2. Tugal syujetli folklor asarlaridan (mif, rivoyat, afsona va ertaklardan)"[9]. Yusuf Shomansur "Ho'kiz va chittak", "Tariq va tarvuz", "Ho'kiz va yong'oq" she'rlarida borliqdagi hodisalardan falsafa axtaradi, xalq masallari va ertaklariga monand syujetli she'rlar yaratadi.

4. *Lirik portretlar yaratila boshlandi.* 60-yillar she'riyatida ajdodlarimiz, zamona qahramonlarining lirik portretini chizishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Muhim tomoni shundaki, ularni yaratishda shoirlar quruq tasvirlash yo'lidan bormaydi, faxr-iftixor, g'urur tuyg'ularini ular orqali berishga intiladi. Botirxon Akromov: "Bunday obrazlar lirikaning boshqa tur kechinma obrazlaridan bevosita yoki bilvosita konkret shaxs – lirik personaj xarakterini yoki ma'lum qirrasini (xoh lirik kechinma, xoh epik element, xoh ramziy-majoziy nisbat tarzida) chizib berish bilan farqlanadi"[10], – deydi. Abdulla Oripovning Beruniy, Navoiy, Gorkiy, Nekrasov, Mayakovskiy, Hamza, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Mirtemir, Sobir Rahimov, Abror Hidoyatov obrazlariga bag'ishlangan, Rauf Parfining "Nozimning sadosi", "Oybek xotirasiga", "Verlen", "Betxoven", "Bayronning so'nggi safari", "Tavfiq Fikrat kitobiga yozuv", "Yegishe Charens xotirasiga", "Pablo Neruda o'limiga", "Viktor Xaraning so'nggi qo'shig'i" she'rlaridagi portretlari, Yusuf Shomansurning "Hamzaning qalami", Sulton Jo'ra tog'risidagi "Fidoyi", Saida Zunnunova xotirasiga atalgan "Afsus" she'rlaridagi portret-obrazlar yuqori pafosda berilganligi bilan farqlanadi.

5. *Turkum she'rlar yozish an'anasi boshlandi.* Shoirlar xorijiy mamlakatlarga safaridan olgan taassurotlarini turkum she'rlarida aks ettira boshladi. Bu o'zbek she'riyatining xalqaro tematika bilan boyishiga olib keldi. Erkin Vohidovning "Kavkaz she'rlari" turkumiga kiritilgan she'rlarida Ozarbayjon va Armanistonga qilgan safaridan olgan taassurotlari, qardosh xalqlarning tabiatiga muhabbat, ularning qahramonona yaratuvchilik faoliyatiga olqish ruhi ustuvor. "Fuzuliy haykali qoshida" she'rida shoirning

---

[8] Хамдамов А. Абдулла Орипов шеъриятида халкона поэтик тафаккур муаммоси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 15.

[9] Ёрматов И. Ҳозирги ўзбек лирикасидаги синтезлашган фольклоризмлар хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. 2-сон. – Б. 35.

[10] Акромов Б. Оламнинг бутунлиги: лирикада образ муаммоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 28.

ozarbayjon xalqining madaniyatiga ehtirom tuyg‘usi yaqqol bo‘y ko‘rsatib turadi. “Kanada turkumi”ga kirgan “Kalgarida soat o‘z ikki”, “Auksion”, “Alisher Navoiy kemasi”, “Sarmoyador” she’rlari, Abdulla Oripovning “Jeneva daftari”ga kirgan “Xalqaro anjuman”, “Jeneva”, “Jamayka”, “Habash qiz”, “Oqlar va qoralar”, Yusuf Shomansurning ham Moskvada o‘qishi davomida yaratgan “Rossiya devoni”dan o‘rin olgan “Eman daraxti”, “Qosimov ko‘chasi”, “Mis suvoriy”, “Qahramonning qiyofasi”, “Lermontovga qadar” she’rlarida boshqa davlatning urf-odati, madaniyati haqida yoziladi.

6. *She’riyatda erkin vazn ommalashdi.* XX asrning 20-yillarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan erkin vazn 60–70-yilllar poeziyasining ham yetakchi xususiyatlaridan biriga aylandi. Bu xususda O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemirning: “Yetakchi rus poeziyasining barakali ta’sirida qanot qoqqan Taqtash she’rlaridan o‘zbek poeziyasiga o‘tgan bir vazn bor: erkin she’r, ravon she’r. Bo‘g‘ib qo‘ymaydigan, to‘la nafas olish uchun qulay. Yigirmanchi yillarda bu vaznda Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, ko‘proq Uyg‘un qalam surganlari hammaga ma’lum. Keyinchalik bu vazn, ya’ni erkin she’r Asqad Muxtor ijodining eng xarakterli bir qirrasi bo‘lib qoldi, uning ko‘pchilik she’ri va yaxshi she’rlari shu vaznda. Hozir Zulfiyaxonim, Yusuf Shomansur, Ramz Bobojon bu vaznga ko‘ngil qo‘yishgan”, – deya o‘z fikrlarini aytadi.

7. *Ijodkorlar tarjimachilik borasida ham bir necha yutuqlarni qo‘lga kiritdilar.* Bu davrda qalam tebratgan qalamkashlar asarlar yozish bilan birga jahon adabiyotining noyob durdonalarini ham tarjima qilish baxtiga muyassar bo‘lganlar. Shu jihatdan, XX asrning 60-yillarida “O‘zbek yozuvchi va shoirlari tarjimachilikni o‘z ijodiy faoliyatlarining doimiy tabiiy yo‘ldoshi, tarkibiy qismi deb hisoblagan holda atoqli adiblarimiz Oybek, G‘afur G‘ulom, Shayxzodalarning an’analarini davom ettirib”[11] badiiy tarjima adabiyotining mundarijasini kengaytirdilar. Boshqa davlatlar bilan adabiy aloqalarni kengaytirish, keng targ‘ib qilish maqsadida qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlar adabiyotidan ijod namunalarini tarjima qilishni yo‘lga qo‘yadilar. Jamol Kamol, Rauf Parfi, Nilufar, Ma’ruf Jalil, Yusuf Shomansur, Aziz Abdurazzoq kabi ijodkorlar uyg‘ur shoirlarining sara she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qiladilar . Shuhrat, H.Sharipov, Sayyor, Yusuf Shomansur, A.Oripov, Muhammad Ali, G.Jo‘rayevalar esa eston xalqi shoir va shoiralarining she’rlarini “Ming orol chechaklari” nomi ostida tarjima qilishga erishadilar.

8. *Badiiy ijodda yangilanishlar bo‘lishiga qaramay kommunistik mafkuraning har bir narsa ustidan olib borgan nazorati saqlanib qoldi.* Bu davrdagi she’rlarga hayotni yorqin tasvirlar bilan aks ettirish, partiya, Lenin haqida kuylash xos. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Jumaniyoz Jabborov, shuningdek, Yusuf Shomansur ijodida ham bunday mazmundagi she’rlar uchraydi. Erkin Vohidovning “Boqiylikning ellik to‘rti”, Yusuf Shomansurning “Il’ichga murojaat”, “Beqasam kiydi Il’ich” H.Sharipovning “Koreizda Lenin haykali”, “Jim Il’ich ishlayapti”, Jumaniyoz Jabborovning “Lenin kabineti” she’rlari Lenin haqida yozilgan. Yusuf Shomansurning “Sof vijdonning timsoli” she’ri partbilet haqida edi. Abdulla Oripovning “Komsomol”, Jumaniyoz Jabborovning “Kommunistlar”, H.Sharipovning “Komsomol yuragi”da esa kommunizm kuylanadi. Bunday she’rlarning uchrashi shoirlar she’riyatining badiiyatiga, saviyasiga ta’sir qilmaydi. Ular hukm surgan hokimiyat chig‘irig‘idan o‘tish uchun yozilgan.

---

[11] Саломов Ғ. Таржима масалаларини комплекс ўрганиш тажрибаси. Таржима санъати // Мақолалар тўплами, 4-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 50.

Mazkur bobning ***"Yusuf Shomansur ijodining shakllanish bosqichlari"*** sarlavhali 2-faslda shoir ijodining shakllanishida adabiy to'garaklar, ustozlarning saboqlari muhim ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beriladi. Har bir ijodkor ijodining sayqallanishida bir necha omillarning ta'siri bo'ladi. Shoir, nosir, tarjimon sifatida tanilgan Yusuf Shomansur ham adabiyot maydoniga XX asrning 60-yillarida navqiron yoshlar safida kirib keladi.

Dissertatsiyada shoir ijodining shakllanishi bir necha bosqichlarga bo'lib o'rganildi. Yosh qalamkash dastlabki saboqlarini, ijod olamidagi yo'l-yo'riqlarni G'ayratiydan oldi. Ustoz rahbarlik qilgan to'garak va undagi adabiy muhit shoir qalbida ijodga bolgan kuchli mehrni uyg'otdi. Unda ijodkor ustozidan she'r yozish bilan birga tahrir qilish sirlarini ham o'rgandi, saboqdoshlari bilan fikr almashish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Dissertatsiyada to'garak va G'ayratiy haqidagi Yusuf Shomansurning o'zi hamda zamondoshlari tomonidan aytilgan xotiralar keltirilib, ustozning saboqlari katta qiymatga ega ekanligi ochiqlandi. Xususan, Yusuf Shomansur G'ayratiy va uning to'garagi haqidagi xotiralarida shunday yozgan: "Oddiy bir to'garakning shunchalik maqomi nimada edi? O'ylashimcha, avvalo, gap ustoz G'ayratiyning havaskordan havaskorni farq qila bilish iqtidorida. U kishi dilida talant uchquni bo'lmagan biror havaskorni shoir qilib qo'ygani yo'q. U yoshlarning o'zida bor iqtidorning yuzaga chiqishiga yordam berdiki, shuning o'zi katta san'atdir. ...Bizning to'garagimizda o'qilgan biror yaxshi satr zoye ketmasdi. Zarrama-zarra bilim olib, ulg'ayardik"[12]. To'garakdagi qizg'in adabiy muhit yoshlarning qalbida adabiyotga bo'lgan ishq olovlanishiga sabab bo'ladi. Adabiy maktabda qismati o'xshash, taqdir yo'li tutash bo'lgan Xayriddin Salohdek sohirqalb inson bilan do'stlashadi. Shu sababdan ham adabiyotshunos olim Hamidjon Homidiy ularni "G'ayratiy etagidan tushib qolgan", ya'ni uning adabiy muhitida shakllangan ijodkorlar sifatida e'tirof etadi[13].

Shoir balog'at davriga yetganda adabiyotimizning yirik namoyondasi Maqsud Shayxzodadek ustozdan bilim olishga musharraf bo'ladi. Alisher Navoiy ijodining o'rganilishiga birinchilardan bo'lib qo'l urgan, Mayakovskiy ijodini ommalashtirishda jonbozlik ko'rsatgan atoqli arbob pedagog sifatida ham o'z uslubiga ega edi. Yusuf Shomansur va Xayriddin Saloh ijodining sayqallanishida ustozning saboqlari juda katta mahorat maktabi vazifasini o'tadi. Bevosita ustoz Maqsud Shayxzodadan saboq olish baxtiga musharraf bo'lgan olim Hamidjon Homidiy bu davr adabiy muhitini shunday xotirlaydi, Yusuf Shomansur ijodini alohida e'tirof etadi: "Nizomiy nomidagi pedagogika institutida shoirlar Yusuf Shomansur, Xayriddin Saloh, Anvar Isroilov, Abduraim Otametov, Tursunboy Yo'ldosh; yozuvchilardan O'ktam Usmonov, Nizom Komilovlar bilan birga o'qiganmiz. Bu ijodkorlar ichida eng shiddatkori Yusuf Shomansur edi. Doim o'qirdi, doim yozardi. Lirik she'rlar va yumorlar yozardi. Abduraim Otametov bilan Yusuf Shomansur yumor yozardi. Maqsud Shayxzoda domla ularning ustozi edi. "Lirikani Xayriddin yozsin-u, yumorni Yusuf yozsin", deb maqtab yurardilar"[14]. Ustoz darslarining ta'siri natijasida Yusuf Shomansurning ijodida muallimning ifoda yo'nalishi, tasvirlash mahorati ma'lum darajada o'zlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Yusuf Shomansur ijodining takomillashuvida, adabiyotning yuqori sahnalarida bo'y ko'rsatishida esa Asqad Muxtorning alohida o'rni bor. "Erkin Vohidov yoki Oxunjon Hakimovmi, Abdulla Oripov yoki Jumaniyoz Jabborovmi, Yusuf Shomansur yoki Usmon

---

[12] Юсуф Шомансур. Биз ғайратий тўғарагидамиз // Гулистон, 1975. – № 4. – Б. 19.

[13] Bu fikrlar adabiyotshunos bilan qilingan suhbat jarayonida yozib olingan.

[14] Bu fikrlar adabiyotshunos bilan qilingan suhbat jarayonida yozib olingan.

Temurmi, xullas, juda ko‘p navqiron ijodkorlarga adabiyotda o‘z yonidan saxovat bilan joy bergan, katta sahnaga olib chiqqan kishi u”[15], – deya Asqad Muxtorni xotirlaydi Husniddin Sharipov. Yusuf Shomansur ham shoir, nosir, tarjimon sifatida yosh ijodkorlarga o‘rnak bo‘la olgan ustozidan ijodiy saralash sirlarini, ijodiy prinsiplarini namoyish etish ko‘nikmalarini o‘rganadi, “Sharq yulduzi” jurnalida she’rlari, tarjimalari, taqrizlari bilan chiqish qilib turadi. Bundan tashqari, Yozuvchilar uyushmasida ishlagan paytlari ustoz Mirtemir domla bilan birgalikda yosh qalamkashlarning ijodini qo‘llab-quvvatlashda bevosita qatnashadi. Mirtemir bilan birgalikda ishlash shoir uchun katta maktab vazifasini o‘taydi.

Yusuf Shomansur ijodining shakllanishida yuqoridagi tashqi omillar bilan bir qatorda ichki omillarning ham ta’sir doirasi ulkan bo‘ldi. Uning ijodi 4 ildizdan ozuqa oldi:

1. *Mumtoz adabiyot an'analaridan.* “Muhabbat maktublari” rukni ostidagi she’rlarida g‘azal janriga xos xususiyatlar borligini aniqladik.

2. *O'zbek xalq og'zaki ijodi durdonalaridan.* “Qaynona–aylonay” she’rida kelinning hazil tariqasida aytgan gaplarida, “Termalar”ida hayotdagi haqiqatni satirik talqinda berishga intilishida, ertak, masallarni yangicha talqinda berganligida, ustozlar G‘afur G‘ulomga “Holva qasidasi”, Oybekka “Pashmak”, Uyg‘unga “Holva haqida”, Shayxzodaga “Holvanoma”, Mirtemirga “Zap holva”, Asqad Muxtorga “Qalam va holva” parodiyalarida folklorga xos jihatlar aks etganligini aniqladik.

3. *Jahon va qardosh xalqlar adabiyotidan.* Yusuf Shomansurning “Oshnam she’r yozibdi”, “Irrigator adib”, “Kursiv bizniki”, “Sukut alomati rizo”, “Haqiqat”, “Va boshqalar” epigrammalari, ulardagi kinoyaviy ma’no jahon adabiyotidan bevosita ta’sirlanishining samarasidir.

4. *Adabiy-tanqidiy izlanishlaridan.* Yusuf Shomansur ilm kishisi sifatida adabiy-tanqidiy maqolalar, risola, dissertatsiya yozgan. Ularda aks etgan qat’iy talab, qonun-qoidalar she’riyati, nasriga ham ta’sirini o‘tkazmay qolmagan.

Adabiyotimizning zabardast vakillaridan ijodning sir-sinoatlarini o‘rgangan, ularning nasihatlarini dasturulamal deb bilgan, yuqoridagi 4 ichki omildan oziqlangan Yusuf Shomansur ijodining ko‘lami ham keng bo‘lishi tabiiy, nazarimizda. Shu sababdan uning ijodi serqirra. Uning adabiy merosini esa quyidagicha turkumlash mumkin:



1-rasm. Yusuf Shomansur ijodi yo‘nalishlari.

[15] Шарипов Х. Шоирнинг тиниқ овози: Аскад Мухтор замондошлар хотирасида. – Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 66.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Yusuf Shomansur she'riyati"** deb nomlangan bo'lib, **1-faslda *"Shoir she'riyatining mavzu ko'lami"*** masalasi tadqiq qilinadi.

Mavzu ijodkorning "men"ini ko'rsatib turadigan asosiy mezon sanaladi. Mavzu ijodkorning o'zligi, asarning asosiy unsuridir. She'riyatda mavzu tanlash, mavzu yoritib berish o'zgacha tarzda kechadi. U she'rda qo'yilgan va yoritilgan masalalar mohiyatidan kelib chiqadigan xulosa sanalmish g'oya bilan doimo chambarchas bog'liqlikda bo'ladi. Shoirlar ma'lum mavzu, unda ifodalangan g'oya orqali hayotdagi pozitsiyasini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Yusuf Shomansur mavzu va g'oya jihatdan rang-barang, usluban o'ziga xos, milliylik ruhi barq urgan she'riyat yaratdi. Shoir she'rlarining mundarijasi Vatan, ona zamin haqidagi she'rlari; falsafiy-intellektual lirika namunalari; muhabbat mavzusidagi she'rlar; peyzaj she'rlari; xotira she'rlar, urush va tinchlik mavzusidagi kabi tasniflandi.

Vatanparvarlik, millat g'ururi mavzusi. XX asrning 60–70-yillarida ijod qilgan shoirlar vatan mavzusidagi she'rlarni o'zgacha ohanglar bilan boyitdi. Shoir Yusuf Shomansur ham vatan mavzusida she'r yozar ekan, uni falsafiy mushohadalar bilan uyg'unlashtiradi. "Mehringga to'ymayman" she'rida yurtiga bo'lgan muhabbatini sodda, samimiy so'zlar vositada ifodalaydi. Voqeaband lirikaga mansub "Tuproq haqidagi she'r"ida ona tuproq bo'lmasa, oddiy o'simlik uchun hayot yo'qligi ta'kidlanishi bilan birga insoniyat ham ona zamin, vatansiz yashay olmasligi aytiladi. Shoirning vatanparvar, yurti, g'ururi uchun fidokor inson sifatidagi qiyofasi til haqidagi "Yangroqliging" she'rida yaqqol ko'rinadi. O'z tilini ulug'lashga qaratilgan bunday she'rlarni yozish shoir ijod qilgan davrda ancha murakkab edi, biroq u jasorat bilan qalbidagi gaplarini ayta oldi. Bunday mavzudagi she'rlarning g'oyasini yurtsevarlik, har bir farzand qaysi kasb-hunar egasi bo'lishidan qat'iy nazar vatani uchun xizmat qilishga tayyor turishi, uni ko'z qorachig'iday asrash kerakligi g'oyasi tashkil qiladi.

Falsafiy-intellektual lirika. 60-yillarga kelib shoirlar ijodida olam, hayot va o'lim, inson taqdiri singari masalalar mushohadasiga qurilgan intellektual lirikaga murojaat qilish kuchaydi. Yusuf Shomansurning "Haqiqat", "Chuchmal gaplarga hech tob-toqatim yo'q", "Alfavit qonuni", "Hafta", "Kalendar varag'i", "Qalam va umr", "Kecha va kunduz", "Me'yor haqida", "Shoshilamiz", "Masofa", "Farzand bilan" she'rlari falsafiy-intellektual lirika namunalari safiga kiradi. "Haqiqat", "Alfavit qonuni" she'rlarida haqiqatni, adolatni badiiy timsol sifatida belgilaydi.

Falsafiy qarashlarining teranligini "Qalam va umr" she'rida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Qalam bilan do'st tutingan ijodkor undan ajralishni istamay suhbat quradi, yuragidan olov bag'ishlaydi, qalamning tugab qolishi – olamdan o'tishini "kuylab turib o'lgan hofizga" qiyoslaydi. Nihoyat, shunday xulosaga keladi: men ham qalamman.

Ha, qalamman, ulkan va tirik.
Yozgan sari tugab boraman
Kechalari qoqmasdan kiprik
She'r ishqida pora-poraman.
Yozgan sari tugab boraman[16].

Yusuf Shomansurning falsafiy mavzudagi she'rlarida vaqtning o'tkinchiligi, inson umrining qadrliligi, adolat, haqiqatning doim g'alaba qozonishi g'oyasi yaqqol anglashiladi.

---

[16] Юсуф Шомансур. Кўш юрак. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б. 39.

Muhabbat mavzusi. Ishq-muhabbat mavzusidagi "Shirmoy", "Kiprik", "Atirgul g'unchasi", "Siyob qiziga" she'rlarida mumtoz adabiyotimizdagi an'anaviy timsollarga novatorona murojaat qilish yo'lidan boradi.

Peyzaj lirikasi. Yusuf Shomansur ijodida tabiat mavzusi alohida tarzda yoritiladi. O'zini borliq bilan uyg'unlikda tasvirlagan "Tun nash'asi", original tasvirlarga boyligi bilan ajralib turgan "Bedazor", "Go'zal Chimyon" she'rlari orqali shoirning poetik mahorati yuksakligiga amin bo'lamiz. Shoir she'rlarida tabiatning bir bo'lagi sanalgan gullarning nomlari – fitonimlar (grek tilidan olingan bo'lib, Phuton-o'simlik + onoma – atoqli ot ma'nolarini anglatadi) badiiy obraz darajasiga ko'tariladi. Gullarning ramziy obraz sifatida she'riyatga kirib kelishi qadimgi odamlarning e'tiqodlari, ilk tasavvur-tushunchalari, totemistik qarashlari bilan bog'liq[17]. Hatto odamning paydo bo'lishiga aloqador tasavvurlar gullarga ham daxldordir. Qadimgi hind eposlarida hikoya qilinishicha, jahondagi eng sohibjamollarning sohibjamoli ma'buda Lakshmi gullarning malikasi – atirgul g'unchasidan paydo bo'lganmish[18]. Shu sababdan gul poetik obraz darajasiga ko'tarilgan, bevosita yorning o'zini anglatgan. Mumtoz adabiyotimiz namoyondalari ijodida gulning sunbul, rayhon, binafsha, lola, yosuman kabi nomlari ham qo'llaniladiki, ularning ba'zilari yorni anglatsa, ba'zilari esa tana a'zolari qismlarini sifatlash uchun foydalaniladi. 60-yillarda ham turli floristik obrazlarga murojaat qilish hollari ko'paydi. Olamning poetik manzarasini ular orqali berishga urinadi. Yusuf Shomansur "O'sma", "Rayhon", "Atirgul novdasi…", "Bedazor" she'rlarida boshqa shoirlar tanlagan lola, binafsha kabi an'anaviy obrazlardan farqli o'zga fitonimik nomlar qo'llaydi.

Xotira she'rlar. Shoirning "Fidoyi", 'Dunyodan o'tdimi Shayxzoda ustoz", "Murabbiy", "Afsus", "Iztirob" ustozlarining xotirasiga bag'ishlab yozilgan. Ularda muallif ustozlariga bergan bilimlari, hayotda uchraydigan sinovlarga qarshi turish uchun o'rgatgan yo'l-yo'riqlari uchun hurmat-ehtirom ko'rsatish kerakligi, ularning yodini qalbida saqlash lozimligi g'oyasini aks ettiradi.

Urush va tinchlik mavzusi. Shoirning bu mavzudagi she'rlarida quyidagi g'oyalar ilgari suriladi:

–"Qarsaklar" – bugungi shodon kunimizga ajdodlarimizning urush maydonida qon kechib qilgan qahramonliklari sabab ekanligini, ularni e'zozlash, yodda saqlash lozimligi g'oyasi.

–"Nasiba" – urush maydonida o'g'lini yo'qotgan ona dardlarini ifodalash orqali hayotning qadriga yetish g'oyasi.

Ushbu bobning **2-faslida *"Shoir she'rlarida ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon tabiati"*** muhokama qilingan. Ijodkor shaxsiyatini ochishda she'rlaridagi lirik qahramon tabiatini tadqiq qilish muhim sanaladi. Lirik qahramon va ijodkor shaxsiyati borasida jahon hamda o'zbek adabiyotshunosligida M.B.Xrapchenko, V.G.Belinskiy, Chernishevskiy, S.Mamajonov, B.Norboyev, Y.Solijonov, D.Quronovning[19] tadqiqotlarida turli qarashlar mavjud.

Dissertatsiyada shoir she'rlarida lirik qahramon tabiati qanday ekanligi, ijodkorga xos xususiyatlar qay darajada aks ettirilganligi tekshirildi. Shoir ijod olamiga kirib kelgan

---

[17] Зеленин Д. Тотеми-деревя в сказаниях и обрядах европейских народов. – М. – Л.: Наука, 1937. – С. 78.

[18] Аминов Б.М. Этнография оламига сафхат. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 29-35.

[19] Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismida berilgan.

davr shaxsga sig‘inish illatiga barham berilayotgan yillar edi. Aynan shu davrda she’riyatda yangilanish jarayoni kechayotgan edi, ya’nikim lirik qahramonning ruhiy olamini kashf etish sari qadam tashlandi. Inson qalbiga yaqinlashish, uning ichki olamini ochish she’riyatning asosiy xususiyatiga aylana bordi. Ijodkorning lirik qahramoni qarashlarida hayotga teran nigoh bilan qarash, dunyo, olam hodisalari mohiyatini anglashga bo‘lgan intilish kuchaydi. Shoir so‘z, fikr, tuyg‘uni uyg‘unlikda ma’lum bir maqsadga, ya’ni inson ruhiy olami haqiqatlarini ochishga, umr falsafasini taftish qilishga yo‘naltirdi.

Yusuf Shomansur lirik qahramoni fikrchan, haqiqatparast, teran dunyoqarash egasi bo‘lgan inson timsolidir. Dunyoga falsafiy nigoh bilan qarash, haqiqatparastlik, soddalik, samimiyatni ulug‘lash, oqibatni kuylash Yusuf Shomansur she’rlarining tabiatiga xos xususiyat sanaladi. J.Jumaboyeva ham XX asr 60–70-yillari o‘zbek she’riyatida ruhiy evrilishlar o‘ziga xos tarzda kechganligini aytib, quyidagilarni yozadi: “Urush o‘zining sovuq nafasi bilan she’riyatni ham go‘zallik, quvonch tuyg‘ularidan mahrum etib, uning o‘rniga judolik, musibat, yo‘qotishlardan giryon bo‘lgan ko‘ngillar rangini muhrladi. Ana shu fojiadan chetda qolmagan lirik qahramon ruhiy olamida ham so‘niq va qayg‘uli manzaralar o‘rnashib oldi”[20]. Yusuf Shomansur she’rlarida ham urushning bergan azoblari, xalqning chekkan iztiroblari ro‘yrost tasvirga tortiladi. “Koshkiydi” she’rida eridan qoraxat olgan ayolning hasratlari lirik qahramonni o‘rtasa, “Nasiba” she’rida o‘g‘lini fronga jo‘natib, uni intizor kutgan ona timsoli gavdalantiriladi. “Qarsaklar” she’rida esa vatan uchun qon kechib kurashgan, qo‘lidan ayrilgan qahramonning jasorati kuylanadi.

60-yillar she’riyatida falsafiylik kuchaydi. Bu holat lirik qahramon tabiatida ham aks etadi. Shoirning ko‘pgina she’rlarida lirik men olam qonuniyatlari, umr, inson va uning hayotdagi o‘rni, adolat va haqgo‘ylik borasida mulohaza yuritadi. “Shoshilamiz” she’rida inson umrining manzaralari falsafiyona taftish qilinadi. “Yurakdagi nusxa”da esa lirik obraz qalbdagi otashini she’rida aks ettira olmaganligidan qiynaladi.

Shoirning aksariyat she’rlarida lirik qahramonga muallif shaxsiyati asos bo‘lib xizmat qilganligi bois she’rlarida ustozlar yodini aziz deb hisoblash hissi kuchli. Ijodining ilk sahifalarida ulkan o‘rin tutgan ustozi G‘ayratiy domlaga bag‘ishlab yozgan “Murabbiy” marsiyasida ustozlarning nomi, xotirasi manguligi shogirdlari bilan belgilanishini ta’kidlasa, “Dunyodan o‘tdimi Shayxzoda ustoz?” she’rida qalb darvozasini tinmay chertayotgan hasratlar kuylanadi. 60-yillar she’riyatida yosh avlod uchun o‘rnak, maktab vazifasini o‘tagan shoira Saida Zunnunova vafoti ham uni qattiq ta’sirlantiradi. Adolatli, haqiqatni burch deb bilguvchi shoiraning satrlarini “sinmas sinch”ga qiyos etadi. Do‘sti Xayriddin Salohdan ayrilish uni butkul hijron otashiga tashlaydi. “Sensiz kunlarim” rukni ostidagi she’rlarida esa sevimli yori – rafiqasidan ayrilish, hijron azobida o‘rtanish tuyg‘usi bosh motiv bo‘lib xizmat qilgan. Bu she’rlarda shoir shaxsiyati, qalb kechmishlari o‘z tajassumini topgan.

Shoirning lirik qahramoni – muhabbatga oshufta qalb egasi. Yusuf Shomansurning “Muhabbat maktublari“ rukni ostidagi she’rlarida jo‘shqin ishq tarannum etilgan. Shoir she’rlarining lirik qahramoni ma’shuqa ko‘yida mastona masrur. “Zulayho bo‘lsang”, “Xiyol-xiyol”, “Tog‘ qizi”, “Nozanin, nozing” she’rlarida ishq o‘tida yongan lirik obrazni,

[20] Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир махорати. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 111.

ya'ni muallifning mumtoz an'analar izidan borib, uni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirganini ko'ramiz.

Mazkur davrda Yusuf Shomansur to'rtliklari orqali nafaqat axloqiy, falsafiy qarashlarini ifodalagan, balki o'z "men"ini ko'rsatishga ham erishgan. Bir to'rtligida shoirni o'z pozitsiyasida qat'iy turuvchi inson, o'zligidan voz kechmaydigan shaxs ekanligini anglaymiz. Bu davrda barmoq vaznida yozilgan tuyuqlarda xalqona va mumtoz ohang uyg'unlashganini kuzatamiz. Tuyuq janrida ijod qilish shoirdan topqirlik, so'zamollikni talab qiladi. Omonim so'zlarni faqat topish emas, badiiylik mezonlariga solish zarur. Yusuf Shomansur tuyuqlarida ham bu talablarga javob bera oladiganlari anchagina. Uning ijodida ishq, vatan, mehnat, mardlik haqida bitilgan tuyuqlarni uchratdik.

Yusuf Shomansur – bolatabiat shoir. Kichkintoylarning dunyosini, qiziqishlarini sinchkovlik bilan kuzatib o'z she'rlarida ifodalay oladi. Bola psixologiyasini yumor orqali ochib beradi. "Baraban", "Nishona" she'rida bolalarning uddaburonligini ko'rsatsa, "Akrom va makaron" she'rida mehnat bilan topilgan taom shirin bo'lishi aytiladi hamda "Vaqt" she'rida vaqt oliy hakamligi, uni besamar o'tkazmaslik lozimligi ta'kidlanadi.

Bolalarcha beg'uborlik va beg'araz kulgini ifodalash uchun esa bolalar folklorining namunasi sanalmish "...bolalarning bir-birlariga va kattalarga hazilkashliklari, tegishishlaridan tug'iladigan goh mutoyibali, goh mulozamatli, goh mazahli yumoristik badihalar"[21] – tegishmachoqlardan samarali foydalanadi. Yusuf Shomansurning "Bodring", "Behi", "Tok bilan suhbat", "Handalak" she'rlari tabiat ne'matlari haqida bo'lib, ularda intoq san'atidan foydalangan holda mevalarning xususiyatlari o'zlarining tilida ayttiriladi.

Dissertatsiyaning 3-bobi esa **"Yusuf Shomansur nasri va tarjimonlik mahorati"** deb nomlanib, **1-faslda *"Adibning "Qora marvarid" romani tadqiqi"*** mavzusidagi fikr-mulohazalar o'rtaga tashlanadi. 60–70-yillar nasri o'zbek adabiyotida bir necha yangiliklari, qamrov doirasi kengligi bilan yaqqol ajralib turadi. Badiiyligi yuksak bo'lgan asarlar yaratildi hamda roman bu davrning yetakchi janriga aylandi. Shoir sifatida yaxshigina yutuqlarga erishgan Yusuf Shomansur ham roman yozish borasida o'z imkoniyatlarini sinab ko'radi. 1970-yil "Sharq yulduzi" jurnalining 2 – 3-sonlarida "Qora marvarid" romani chop etiladi. Romanning yozilish jarayoni haqida adibning o'g'li Mahmudbek Shomansurov shunday fikrlarni aytadi: "Qora marvarid" romani haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu asar birdaniga yozilmadi. Dastlab yon daftardagi qaydnomalar asosida bolalar uchun "Qora oltin bulog'i", keyinchalik "Neft va lola" she'riy turkumlari oq qog'oz yuzini ko'rdi. Va nihoyat, neftchilar hayotiga doir nasriy asar yozishga ham navbat keldi. Sakkiz yil ichida yozilgan roman dastlab "Sharq yulduzi" jurnalining ijodiy kengashida ko'rib chiqildi"[22]. To'plamga kirgan rang-barang she'rlar ijodkorning neftchilar hayotini bevosita kuzatganligi, ularning mehnatini qadrlaganligining nishonasidir. Kondagi turli detal, hodisalar shoirona tafakkurini boyitibgina qolmay, shoir she'riyatining boyitgan, keyinchalik "Qora marvarid" romanini yozish uchun zuvala vazifasini bajaradi.

---

[21] Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B. 347.

[22] Шомансуров Маҳмудбек. Лафзи халол инсон эди: Юсуф Шомансур. Қора марварид. – Тошкент: Nurafshon business, 2020. – Б. 306.

Asardagi asosiy voqealar tizimi Oqila, Hikmat va Majid ishtirokida ro‘y beradi. Goh o‘quvchi, goh talaba, goh yosh mutaxassis sifatida kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalangan qahramonlarning hayotiy tajribalari, dunyoqarashi, mulohazalari turlicha. Ular hayot sinovlariga fidoyilik, shijoat bilan ko‘ksini tutgan qahramonlar sifatida tasvirlanadi, shu bilan birgalikda, ularning ojizliklari, nuqsonlari ham voqealar fonida ochib beriladi. Asar bosh qahramoni Oqila mehribon, intiluvchan, tirishqoq qiz. U hayotning turli sinovlariga duch keladi. Chaqaloqligidanoq Shokir so‘fining ostonasiga tashlab ketiladi, so‘ngra “tunuka tomliklar”ning qo‘lida voyaga yetadi. Asarning “Balog‘at” qismida tashlandiq qiz – Oqilani chaqaloqligidan boqib olgan “tunuka tomliklar”ning oilaviy muhiti tasvirlanadi, oila boshlig‘i To‘xtasin aka, Karomat xolalarning xarakteriga xos chizgilar beriladi. Oqilaning bolaligi tasviri ishonarli qilib berilganki, yozuvchining topilmalari hayot haqiqati va badiiy haqiqatning uyg‘unlashgan holda berilishiga xizmat qilgan.

Karomat xola – Oqilaning boqib olgan onasi. Muallif qahramonni ikki xil qiyofada gavdalantiradi. Bir qaraganda xola gapga chechan, sodda, mehribon o‘zbek ayoli sifatida ko‘rinadi. Ammo muallif voqealar fonida uning boshqa qiyofasini ham kitobxonga ko‘rsatadi. Matyoqub Qo‘shjonov yozuvchi hayotdan tanlab oladigan idealini ikki yo‘l: biri yozuvchi idealiga to‘g‘ri kelgan borliqni ulug‘lash, ikkinchisi, idealiga to‘g‘ri kelmaydigan tomonlarni qoralash bilan tasdiqlab olishini ham ta’kidlab o‘tishini[23] aytganidek, Yusuf Shomansur ham Karomat xola xarakteridagi ijobiy jihatlarni ko‘rsatish bilan birga undagi salbiy tomonlarini ham ravshan tasvirlaydi. Asrab olgan qizga munosabatida, ya’ni boqib olganligini yuziga solishida, Hikmatga qo‘shnilari tomonidan mehnat haqi uchun tashlab ketilgan pullarni yarmini olib qolishida Karomat xolaga xos bo‘lgan xudbinlik illatlari bo‘y ko‘rsatadi. Bundan tashqari, epik asarlarda personajlar kechinmasini tasvirlash, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berishdan ko‘ra, shu tuyg‘ularning paydo bo‘lish jarayoni, ularning hayotiy-ruhiy ildizlari qayerda ekanini ko‘rsatishga ko‘proq e’tibor qaratiladi[24]. Yusuf Shomansur ham Oqilaning bozordan qaytgandagi holatida shu jihatlarni inobatga olgan. Oqilaning ruhiyatiga ta’sir qilgan bozor voqeasi, ya’ni onasining yaqin dugonasi mahsulotini dehqonga ikki barobar qimmatga sotishi, bunda uning eri va atrofdagilarning xaridorlardek rol o‘ynashini mahorat bilan tasvirlagan.

Asarning g‘oyaviy-kompozitsion jihatdan mukammal chiqishida badiiy asar arxitektonikasining muhim vositalaridan sanalmish peyzajning o‘rni ham doimo yuksak bo‘lgan. Yozuvchilar peyzaj orqali personajlarning ichki kechinmalarini ko‘rsatadi. “Qora marvarid” romanida ham bahor tasviri Oqilaning kayfiyati va holatiga uyg‘un bo‘lib keladi. Bu tasvirlarda peyzaj va ruhiyat uyg‘unlashuvi bilan birga “atlas”, “iroqi do‘ppi” orqali milliylikning ham birlashganligini anglaymiz. Bahor qahramonning kayfiyatiga ta’sir o‘tkazgan, milliy liboslarining jilvalanishi ham uning holatiga monand tasvirlangan.

O‘zbek adabiy tilining boyish manbalaridan biri shevalar hisoblanadi. Epik asarlarda qahramonlar nutqi shevadagi so‘zlar vositasida individuallashtiriladi. Shu bilan birga, obrazni to‘laqonli ochishda, ishonchli chiqishida, muhit tasvirini ko‘rsatishda, mentalitetni ifodalashda katta yordam beradi. “Qora marvarid” romanida ham til elementlaridan samarali va o‘rnida foydalanilgan. Qahramonlar yashagan muhitni tasvirlashda dialektlarni, obrazlarning xarakterini ko‘rsatishda vulgarizmlarni ustalik bilan

---

[23] Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. – Б. 159.
[24] Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2015. – B. 280.

ishlatgan. Xalq donoligining mevasi bo‘lmish maqollar, iboralar romanda ham nafaqat badiiy bezak vazifasini bajargan, balki qahramon xarakterini ochishda kalit o‘rnida qo‘llanilgan. Romanda ishlatilgan maqol va iboralar, dialektlar va vulgarizmlarni tizimli ravishda jadvalga soldik.

1-jadval.

“Qora marvarid” romanida qo‘llanilgan til unsurlari

Maqollar	**Iboralar**	**Dialektlar**	**Vulgarizmlar**
Keng kengashib yirtiladi (18-bet)	Og‘zidan oq it kirib qora it chiqdi (50-bet)	Komissiyavuz bo‘ladi (11-bet)	yashshamagurlar
Bandasi o‘lmas, rizqi kamaymas (22-bet)	Ichi kuyib ketdi	Tegli-taxtli odamlar (11-bet)	Iloyo qon qusib... (13-bet)
Yetim qo‘zi asrasang, og‘zi-burning moy bo‘lar, yetim bola asrasang, og‘zi-burning qon bo‘lar (34-bet)	Otninam tuya bermaysiz (66-bet)	Uyalvotti xolasi (17-bet); O‘g‘lingiz o‘zi masxara qivotti (32-bet)	Shumliging boshingni yegur (14-bet)
Qulunning tepgani ona otga o‘tmaydi (39-bet)	O‘tirsa o‘poq, tursa so‘poq (104)	Yigitti xo‘rozi bunaqa bo‘lmaydi (117-bet)	Mendayam miya o‘lgur ko‘p (63-bet)
Sukut – alomati rizo (40-bet)			Pardali gapirmay o‘l, moxov qilding (77-bet)
Itdan suyak qarzdormiz (41-bet)			

“Adabiy asar tilida ta’rif-tavsif (xarakteristika – lot. charakter (xarakteristika) xossa-xususiyat) usuli ham muhim o‘rin tutadi. Uning muallifning ta’rif-tavsiflari va qahramonlarning nutqiy ta’rif-tavsiflari kabi ikki xil ko‘rinishi mavjud. “Qora marvarid” romanida To‘xtasin aka, Majid, Hikmat va Oqila, Asror aka obrazlarini tasvirlashda muallifning ta’rif-tavsiflaridan foydalanilsa, Karomat xola obrazini ochishda ta’rif-tavsifning har ikkala turini samarali qo‘llaydi. Oqilaga ta’rif berganda Hikmatning tushi orqali unga chizgilar beriladi.

Ushbu bobning 2-fasli ***“Yusuf Shomansurning tarjimonlik mahorati masalasi”*** tadqiqiga bag‘ishlangan. Tarjima boshqa ijodkor tomonidan yaratilgan asarga tarjimonning “men”ini, dunyoqarashini singdirgan holda uni qayta jonlantirish, boshqa tilda tiriltirish san’atidir. XX asrning 60–70-yillarida ham tarjima san’atining imkoniyatlari orqali jahon adabiyotining sara namunalaridan o‘zbek kitobxonlari bahramand bo‘ldi. Shoir, yozuvchilarimiz tarjimalar sababli yangi shakllarga murojaat qildilar. Shekspir sonetlarining tarjimasiga qo‘l urilishi esa o‘zbek adabiyotida alohida hodisa bo‘ldi. Dastlab 1965–66-yillarda Maqsud Shayxzoda Shekspirning 11,17,18, 21, 22, 25, 29-sonetlarini o‘zbek tiliga o‘girdi. Keyinchalik A’zam Obidov 21, 54, 55, 65, 66, 128-sonetlarni tarjima qildi. Xurshid Davron ham ulkan qiziqish bilan 27, 28, 29, 66-sonetlarni tarjima qilish sharafiga musharraf bo‘ldi. 1978-yilda Shekspir sonetlarining to‘liq varianti ilk bora shoir va tarjimon Yusuf Shomansur tomonidan kitobxonlar e’tiboriga havola etildi. U o‘zbek tiliga rus tilidan – S.Marshak variantidan tarjima qildi[25]. Tadqiqotchi Nargiza Bo‘riyeva Shekspir sonetlarining bevosita va bilvosita tarjimalarini tahlil qiladi, ularning yutuq va kamchiliklarini ko‘zdan kechiradi. Yusuf Shomansurning tarjimonlik mahoratini alohida e’tirof etadi: “Tarjimonning mahorati shundaki, shoir tarjima qilgan sonetlarga hech kim rus tilidan tarjima qilingan deb o‘ylamaydi, balki o‘zbek tilida yozilgan sonet sifatida qabul qiladi. Tarjimon sonetning asl mohiyatini

[25] Шекспир У. Сонетлар: Русчадан Юсуф.Шомансур таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 200 б.

chuqur idrok etgan holda uning butun ruhiyatini saqlab qolishga harakat qilgan. Bu o‘rinda aytish kerakki, Yusuf Shomansur tarjimasi asl nusxaning surrogati emas, balki o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos ko‘rinishidir. U Shekspirning yoniq nafasini o‘zbek kitobxoniga yetkazishga qutlovga loyiq ish qildi”[26].

Mustaqillikdan so‘ng Shekspir sonetlari ingliz tilidan Jamol Kamol, M.Xolbekov tomonidan tarjima qilinadi. Yusuf Shomansur tarjimonlik mahoratining alohida o‘ringa egaligini ko‘rsatish uchun ayrim sonetlarni Jamol Kamol sonetlariga qiyosan tahlil qildik. Chunonchi, 1-sonetda Yusuf Shomansur asliyat muallifining badiiy niyatini Jamol Kamolga nisbatan aniqroq payqagan. Chunki unda bo‘yoqdorlik, aniqlik bor. Biroq ikki muallifda ham o‘zgacha yondashuv mavjud. Do‘stining axloqan yetuk bo‘lishiga chorlovchi 2-sonetining tarjimalarini qiyoslaganimizda esa Jamol Kamolda lirizmning ustuvorligini, bo‘yoqdorlik yuqori pog‘onada ekanligini ko‘rdik. Yusuf Shomansurning tarjimonlik mahorati so‘z tanlashdagi sinchkovligida, ularga turli ohanglar yuklashida, sodda jumlalar vositasida ham ta’sirchanlikka erishishida ko‘rinadi. 8-sonetda do‘stining musiqadan g‘amginlikni axtarishining sababini so‘ragan lirik qahramon holatini yoritib beradi va u do‘stiga ma’yuslikni emas, boshqacha ohanglarni qo‘shiqdan izlashini maslahat beradi.

Ba’zi bir tarjimalarda esa Yusuf Shomansurning o‘zligini, xarakterini ko‘rsatuvchi belgilar mavjudki, uni o‘qib, sonet tarjimonning o‘zi tomonidan yaratilgandek tasavvur uyg‘otadi. 11-, 31-, 34-, 36-, 44-, 66-, 67-sonetlarda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlardan foydalanib, shekspirona tafakkurni qayta yaratishga intilganligi, jahon adabiyotining noyob durdonasini milliylik bilan uyg‘unlashtirishga uringanligi, lirik qahramonning yoriga qumrim, nigor tarzida murojaat qilishi orqali sharqonalikni sonetga sindirganligi kabi belgilar Yusuf Shomansurning tarjimonlik borasida o‘zining uslubini yaratganligining dalolati bo‘lib turibdi.

Yusuf Shomansur tarjimon sifatida Shekspir sonetlaridan tashqari dunyo adabiyotining ulkan vakillari ijodiga ham murojaat qildi.

2-jadval.

Yusuf Shomansurning tarjimalari.

Muallif	Asar nomi	Janr
Bayron	“Zamonga xitob”	She’r
Gyote	“Qalb yaqinligi”	She’r
Pushkin	“Emanzorlar”	She’r
Lermontov	“Shu vaqtgacha turib yoningda…”	She’r
Nekrasov	“Urush – ofat, jonimga jafo”	She’r
Shekspir	“Otello”dan tarjima	Tragediya(parcha)
S.Marshak	“Olg‘a eltayotgan vaqtning otini”	She’r
Kachayev	“Inson”, “Shoir sanar edim o‘zimni”	She’r
Maksim Tank	“Rizq-u ro‘zim” kitobidan	She’rlar
Lilyana Stefanova	“Chanada”	She’r
Nguen Suan Shan	“Mayakovskiyning uyida”	She’r
Sergey Mixalkov	“G‘alaba kuni”	She’r

[26] Бўриева Наргиза. “Шекспир сонетларининг бадиий услуби ва уни Шекспир сонетларида кайта тиклаш масаласи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Самарканд, 2020. – Б. 96.

Veronika Tushnova	"O'zbekiston", "Tong", "Araz"	She'rlar
Tagor	"Eshikni och"	She'r
Musa Jalil	"Esimda", "Xayr, Oqilam", "Kaska", "Sen raykomga ketgach"	She'r
Fayz Ahmad Fayz	"Mening vatanim", "Kun yaqin"	She'r
G.Abashidze	"Lahza"	She'r
O.Shiroz	"Binafshaga"	She'r
Nikolay Kulikov	"Chegaradagi so'qmoq", "Dovonga qadar"	She'r
Yevtushenko	"Bolalarga…"	She'r
Iosif Noneshvili	"Tbilisi – Gruziya yuragi"	She'r
Mart Ruad (eston tilidan)	"Naqshin qo'lqop", "Qum o'ynagan bolalar", "Yorug' ko'zlar"	She'rlar
Mats Traat	"Sodda qo'shiq"	She'r
Yuxan Syuitiste	"Yarim kecha"	She'r
Ibrohim Yusupov (qoraqalpoqchadan)	"Sahro orzulari"	doston
Ro'zi Qodiriy (uyg'urchadan)	"Quchog'ingda barq urar quyosh"	She'r
Hanifa Solibova (uyg'urchadan)	"Murodim", "Ishqingda", "Quvonch", "Tumor", "Xayr, Qashqar", "Nay navosi"	She'rlar
Boyniyoz Qaipnazarov (qoraqalpoqchadan)	"Guldasta"	She'r
Qora Sentliyev (turkmanchadan)	"Quduq yonida", "Don sepasan kaptarlaringga…", "Xumor ko'zlar", "Qizni erta uygotmang juda"	She'rlar
Lyudmila Tatyanicheva	"Ko'zlar", "Qayin", "Vijdon", "O'g'il sovg'asi"	hikoya

So'z san'atkori asl tarjima talablaridan kelib chiqib, so'zlarni emas, asar ohanglari, ritmini qayta tajassumlantirishi zarur. Yusuf Shomansurda ham she'rning ohangida vaznni saqlagan holda ritmni saqlash, unga jon bag'ishlash ustunlik qiladi. Pokiston xalqining shoiri Fayz Ahmad Fayz "Mening vatanim" she'rida Pokiston xalqiga xos bo'lgan xarakterlar: vatanparvarlik, mardlik, soddalik, or-nomuslilik kabilarni o'ziga xos yo'nalishda badiiylashtirib, ohangraboday o'ziga tortuvchi dilbar satrlarni yaratgan. O'girmada ehtirosning to'lqini saqlangan, she'r musiqiyligi to'liq ta'minlangan. Tarjimalarning adabiy ta'siri shunday ulkanki, shoirning ijodiy kamol topishida, poetik idroki o'sishida muhim rol o'ynaydi. Yusuf Shomansur ijodining shakllanishida ham ana shu tarjimalarning hissasi ulkan bo'ldi. Mavzular ko'lami, obrazlar doirasini shoir o'z ijodiga ham singdirdi. Shekspirning "Mujgonlar juftlashsa nigohim ravshan" deya boshlanuvchi soneti ta'sirida "Kiprik" she'rini yaratadi. Arman shoiri O.Shirozning "Binafshaga" she'rida ifodalangan g'oyani "Atirgul novdasi" she'rida aks ettiradi.

XULOSA

Tadqiqotimiz qamrovidagi manbalarni tekshirib, tahlil qilish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. XX asrning 50-yillarida o'zbek lirikasida avj olgan sxematizm, nasihatgo'ylik, taqlidchilik illatlariga qarama-qarshi o'laroq 60-yillar avlodi vakillari badiiy mukammal asarlari bilan adabiyotimizga yangi nafas, o'zgacha qarashlarni olib kirdi. Davr she'riyatining inson ruhiyati iqlimlariga chuqur kirib borishi, shoirlarning she'rlari mundarijasi xalqaro tematika bilan boyiganligi, lirik qahramonning hayotga qarashlarida

tiyraklik sezilganligi, ijodkorlar sintezlashgan folklorizmlardan jahon andozalariga muvofiq ravishda foydalanilganligi kabi xususiyatlar o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

2. XX asr 60–70-yillarning yangicha dunyoqarashga, alohida uslubga ega ijodkorlari safida Yusuf Shomansur ijodining roli yuksak bo‘ldi. Uning badiiy tafakkuri va estetik ongi shakllanishida, rivojlanishida bir necha omillarning ta’siri beqiyos bo‘ldi. Ular tadrijiy o‘rganildi: 1. Adabiyotning sirlarini o‘rgatishda, tasavvur olamining o‘sishida G‘ayratiy to‘garagining ta’siri masalasi zamondosh va davradosh bo‘lgan ijodkorlarning xotirasi orqali tahlil qilindi. 2. Intellektual salohiyati oshishida, serqirra ijodkor bo‘lib yetishishida ustozi Maqsud Shayxzodadan olgan saboqlarining roli kattaligi ijodkorning esdaliklari, davrdoshlarining suhbatlari asosida ko‘rib chiqildi. 3. Shoirning ijodiy salohiyati sayqallanishida Asqad Muxtordan o‘rgangan ijodiy saralash sirlarini namoyish etish ko‘nikmalarining ahamiyati xususida fikr yuritildi. 4. Mirtemir domla bilan Yozuvchilar uyushmasida yosh qalamkashlarning ijodini qo‘llab-quvvatlash uchun olib borgan ishlari ijodiy kamolotida ulkan maktab vazifasini o‘tganligi alohida e’tirof etildi.

3. Yusuf Shomansur ijodi serqirra, adabiyotning turli sohasini qamrab olganligi sababli ham uning adabiy merosini janr jihatidan tasnif qilish masalasini oldimizga qo‘yadi. Uning ijodini yaxlit va yakdil o‘rganish uchun asarlari nazm, nasr, adabiy-tanqidiy qarashlari, tarjimalari kabi guruhlarga bo‘lib o‘rganildi.

4. Shoir she’rlarida mavzu va poetik g‘oyaning organik birlikni hosil qilishi ulardagi badiiy butunlikni yuzaga keltirgan. Yusuf Shomansur mavzu jihatidan rang-barang she’rlarni yaratish bilan birga usluban turli-tumanlilikka ham erishgan. Shuning uchun ham shoir she’rlarining mundarijasi 6 guruh doirasida tasniflab o‘rganildi. Shoir Vatan haqidagi she’rlarida tuyg‘ularini falsafiy mushohadalar bilan uyg‘unlashtiradi. Falsafiy-intellektual lirika namunalarida esa haqiqat, adolat, me’yorni poetik timsol darajasiga ko‘taradi. Muhabbat haqidagi she’rlarida xalqona, oshiqona so‘zlar tizmasidan foydalanadi. Peyzaj lirikasida poetik sintaksisning unsurlarining biri sanalmish kuchaytiruvchi figuralardan badiiy takror, ritorik murojaat, halqadan foydalanib, she’rning kompozitsion butunligiga erishadi. Yusuf Shomansurning floristik obrazlar tasvirlangan she’rlarida o‘zbek xalqining milliyligi, etnografiyasi aks etadi. Yana ayrim she’rlarida milliy koloritni ifodalovchi piyola, o‘sma, rayhon, sopol tovoq kabi realiyalarga murojaat qilinadi.

5. Bolalarga atalgan she’rlarida qo‘llanilgan yumor elementlari ularning pokiza olamini boricha qabul qilgan shoirni ifodalab turadi. Ularda qo‘llanilgan alliteratsiya, assonans kabi fonostilistik vositalar jajji qalb egalarining qiziquvchanligi, bilimga chanqoqligi, mehnatkashligini ko‘rsatishda muhim o‘rinda turadi. Bolalarning yosh, jins bilan bog‘liq bo‘lgan gender xususiyatlari shoirning she’rlarida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi.

6. Yusuf Shomansurning she’rlarida ijodkor shaxsi va lirik “men”ning sintezlashuvini kuzatamiz. Shoir she’rlarining lirik qahramoni – falsafiy-intellektual idrok egasi. Borliqni, undagi voqeliklarni faylasufona nigoh bilan mushohada etishga urinadi. Lirikasidagi bosh qahramon hayotiy, ijtimoiy-estetik ideallarini o‘zida mujassamlashtirganligi boisidan ham shoirning o‘ziga o‘xshaydi. Ijodkorning ustozlariga bag‘ishlagan xotira she’rlarida va ayoli vafoti munosabati bilan yozgan marsiyalarida

shaxsiy hayoti asos vazifasini bajaradi. Ularda ijodkorni qiynagan ayriliq azoblari kuylanadi. Bu she'rlar avtopsixologik lirikaning namunalariga kiradi.

7. Ijodkorning to'rtliklari va tuyuqlarida lirik qahramon tabiati yanada yorqinroq ko'rinadi. Janrga xos hajman qisqalik, aniq va lo'nda fikrga aytish kerakligi bu vazifani bajarishga imkon tug'diradi. To'rtliklarida axloqiy, falsafiy qarashlari orqali o'z "men"ini ko'rsatgan bo'lsa, tuyuqlarida so'z o'yinlaridan foydalanib, mehnatni sevuvchi, mardlikni qadrlovchi lirik qahramonni gavdalantiradi.

8. Yusuf Shomansur nosir sifatida roman janrida "Qora marvarid" asarini yozib, o'ziga xos uslubini namoyon etadi. Bu xususiyatlar uning xarakter yaratish mahoratida, qahramonlar portretini chizishida, til vositalaridan unumli foydalanishida ko'rinadi. Asarda Karomat xola xarakterini shakllantirishda haqqoniylik prinsipiga amal qiladi. Muallif ularni xarakterlashda o'zining xarakteristikasidan tashqari personajlarning nutqiy ta'rif-tavsiflaridan ham foydalanadi. Bunda ularning nutqiga xalq maqollari, frazeologik birliklar, dialektlar, vulgarizmlarni kiritadi.

9. Yusuf Shomansur romanda hayotiy material va badiiy to'qimaning chegaralarini belgilashda kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa-da, davr uchun muhim bo'lgan yoshlarning hayoti, orzu-intilishlari masalasini yoritadi. Syujetni berishda ham ularning o'tmishiga nazar solish uchun retrospektiv usuldan foydalanadi. Qahramonlarning holatini ochishda ruhiy kechinma va tabiat manzaralarini uyg'unlikda berish, qo'shimcha ravishda milliylikni aks ettiruvchi detallarning tasvirlari uchrashi asarning qimmatini oshiradi.

10. Tarjima bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratish san'ati hisoblanadi. Unda ijodkor asarga o'z badiiy tafakkurini singdirib, jon bag'ishlaydi. Yusuf Shomansur ham tarjimon sifatida ustozlari Maqsud Shayxzoda, Mirtemirlarning an'analarini davom ettirdi. Bu uning Shekspir sonetlarini, rus va qardosh millat vakillarining ijod namunalaridan qilgan tarjimalarida badiiy bo'yoqdorlikning kuchliligida ko'zga tashlanadi. Shekspir sonetlaridan qilgan tarjimalarida falsafiylikning, dramatik ruhning kuchliligi sezildi. Ijodkor tarjima jarayonida asl she'rning ritmini saqlab qolishga urinadi, o'zining lirik "men"ini ham singdiradi.

11. XX asr 60-yillarida qalam tebratgan ijodkorlarni badiiy ijodda ham, adabiy-estetik qarashlarini ifodalashda ham yetakchi bo'lganligi hammaga ayon. Shularning safida Yusuf Shomansur ham tanqidchi-ijodkor sifatida ilmiy-ijodiy izlanishlarini jamoatchilik e'tiboriga havola etgan. Tengdoshi Husniddin Sharipovning, Pirimqul Qodirovning asarlariga yozgan taqrizi, Izzat Sultonning dramaturgiyasi yuzasidan yozgan maqolalari, "Maqsud Shayxzoda – bunyodkor shoir" risolasi, nihoyat "Voqelikni realistik aks ettirishda ilmiy tafakkurning roli" ilmiy-tadqiqot ishida adabiy-tanqidiy mulohazalari aks etadi. Ularda adabiyotshunoslikdagi muhim masalalar ularning asarlari misolida tahlil qilinadi, taroziga solinadi.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 UNDER TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVO'I

ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

JARKINOVA TURSUNOY ABDUMAJITOVNA

POETIC FEATURES OF YUSUF SHOMANSUR'S WORK

10.00.02 – Uzbek Literature
(20th Century Uzbek Literature and the Contemporary Literary Process)

ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
DISSERTATION IN PHILOLOGY

Tashkent – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered at the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.1.PhD/Fil3332.

The dissertation was completed at Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

The dissertation abstract is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and on the "ZiyoNet" Information and Educational Portal (www.ziyonet.uz).

Scientific adviser:	**Karimov Bahodir Nurmetovich** Doctor of Philology, Professor
Official opponents:	**Jumakhoja Nusratullo Atoullo ugli** Doctor of Philology, Professor
	Kahramonov Kurdosh Yalgashevich Doctor of Philology, Professor
Leading organization:	**Chirchik State Pedagogical University**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 under Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature on 17.09, 2025 at 14⁰⁰ (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaroy district, Yusuf Khos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature (registered under number 366). Address: 103 Yusuf Khos Hojib Street, Yakkasaroy District, Tashkent, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

The dissertation abstract was distributed on 22.08, 2025.

(Registry report No 5 dated 22.08, 2025)

Sh.S.Sirojiddinov
Chairman of the scientific council for awarding academic degrees, Doctor of Philological Sciences, Academician

K.U.Pardayev
Scientific secretary of the scientific council for awarding academic degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

N.A. Jabbarov
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION
(Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

The relevance and necessity of the dissertation topic. In world literary studies, considerable research is being conducted on understanding the personality and creative legacy of authors, approaching their works with in-depth analysis, grasping their essence, and conveying them to future generations. It is widely known that literary schools, as well as biographical and sociological factors, play a significant role in shaping the creative activity of poets and writers. From this point of view, it is necessary to re-evaluate the creative work of the poet, prose writer, translator, and literary scholar Yusuf Shomansur (1936–1978), to examine the poetic features of his works, and to interpret their generic aspects.

One of the key tasks in contemporary literary scholarship is to turn to the works of poets and writers whose creativity has not yet been thoroughly studied, to collect and comprehensively examine their literary heritage, and to approach them objectively. In making important scholarly conclusions, interpreting the creative laboratory of writers and the distinctiveness in their works takes precedence. Analyzing such works in this direction contributes to clarifying and improving theoretical issues in literary studies such as subject matter, the nature of the lyrical hero, style, and genre. A comprehensive study of the author's diverse activities – in translation, creative writing, and scholarly research – provides valuable insights for literary criticism. In this regard, the scientific analysis of the influence of the literary environment, translation, and scholarly activity on the formation of Yusuf Shomansur's artistic thinking determines the relevance of the research.

In Uzbek literary studies, the independence period has brought about broad opportunities to thoroughly and consistently re-examine the Uzbek literature of the 1960s–70s. In particular, the avenues for investigating literary works based on various methods and theoretical approaches have expanded considerably. Such an approach is of vital importance for studying the genesis of literary phenomena, their stages of historical development, and their artistic features, and, most importantly, for interpreting and researching the literature of the 1960s–70s and the creative figures of that era in the spirit of national independence. To align with global literary scholarship, Uzbek literary studies is tasked with further penetrating the essence of literary works, comprehensively studying the literary legacy of writers, and approaching them based on criteria of artistic merit. As our great poet Chulpon stated, "If literature and culture live, the nation can live," and therefore, "Attention to literature, art, and culture is, above all, attention to our people, to our future"[27] – we have no right to forget this. Recognizing the growing volume of work being undertaken in international literary studies, it becomes evident that studying and revealing the essence of the literary works of representatives of Uzbek literature from the 1960s–70s is a timely and necessary task. The study sets forth the task of defining the place and significance of Yusuf Shomansur's creative legacy in Uzbek literature as an important theoretical issue.

---

[27] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. 4-avgust.

The present dissertation research contributes, to a certain extent, to the implementation of objectives outlined in a number of regulatory and legal documents, including: the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-4958 dated February 16, 2017 "On Further Improvement of Postgraduate Education", No. PD-5847 dated October 8, 2019 "On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", No. PD-5850 dated October 21, 2019 "On Measures to Fundamentally Increase the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language"; the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-3271 dated September 13, 2017 "On the Program of Comprehensive Measures for the Development of the System of Publishing and Distribution of Book Products, Promotion of Reading and the Culture of Book Consumption", and No. PR-3652 dated April 5, 2018 "On Measures for the Further Improvement of the Activities of the Writers' Union of Uzbekistan"; the President's speech delivered during the meeting with representatives of the country's creative intelligentsia on August 3, 2017, his instructions regarding the enhancement of literature's influence during his visit to the Alley of Writers in Tashkent on May 20, 2020, along with other relevant normative and legal documents.

Compliance of the research with the priority areas of development of science and technology in the republic. This research has been conducted in accordance with Priority Area I of the national strategy for the development of science and technology in the Republic of Uzbekistan: "Formation and implementation of a system of innovative ideas in the development of an information-based society and a democratic state in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational spheres".

The degree of study of the problem. In order to preserve a nation's values and identity, it is essential to deeply study its legacy that has endured through centuries, and to research the works created by the devoted sons of the homeland for the prosperity of the Uzbek nation. Strategic development principles that define Uzbekistan's path of progress also prioritize the comprehensive study and practical application of the people's unique heritage, aiming to educate future generations in the spirit of patriotism and national pride.

The characteristic features of Uzbek literature in the 1960s and 1970s, the specific traits of its poetry and prose, and the originality of the authors of that era have been addressed in several books, articles, and dissertations. In particular, literary critics and scholars such as I.Sulton, M.Kushjonov, S.Mamajonov, N.Khudoyberganov, I.Gafurov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, N.Rahimjonov, M.Safarov, E.Vohidov, I.Yormatov, B.Akromov, U.Hamdam, J.Jumaboyeva, and Y.Solijonov[28] have expressed their views on the poetry, prose, criticism, and translation of the period.

---

[28] See: Иззат Султон. Ҳаёт, адабиёт ва маҳорат: адабий-танқидий ишлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 318 б.; Қўшжонов М. Изланиш // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1960. – № 8. – Б. 22; Қўшжонов М. Ижод сабоқлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – 190 б.; Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. – 166 б.; Мамажонов С. Ўзбек совет поэзиясининг кечаги, бугунги ва эртанги куни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – № 6. – Б. 40; Мамажонов С. 1965-йилнинг шеърий парвози // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1966. – № 7. – Б. 202; Мамажонов С. Лирикамизга бир назар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1969. – № 11. – Б. 229; Худойберганов Н. Жанговарлик ва масъулият // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1969. – № 7. – Б. 200; Худойберганов Н. Ҳақиқий муҳаббат борми? // Гулистон, 1973. 7-сон. – Б. 26; Гафуров И. Ям-яшил дарахт // Гулистон, 1975. 4-

